



## SUG'ORISH TARTIBLARINI SO'YA O'SIMLIGI RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

**Abdulxafizov Xalilillo Abdug'ani o'g'li**

AQXAI magistranti. +998916009150

halililloabdulhafizov@gmail.com

**Abidjonov Raxmatillo Ozodbek o'g'li**

AQXAI magistranti. +998941020414

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7947433>

### ARTICLE INFO

Received: 09<sup>th</sup> May 2023

Accepted: 17<sup>th</sup> May 2023

Online: 18<sup>th</sup> May 2023

### KEY WORDS

CHDNS (chegaraviy dala nam sig'imi), tuproq namligi, Slaviya dukkaklash, gullash, g'unchalash.

### ABSTRACT

*Soya ekini tobora ko'payib va extiyoj ortib borayotgan ekin turi bo'lib boshqa ekinlardan ajralib turadi. Chunki, uning doni tarkibida yuqori sifatli aminokislotalar bilan ta'minlanganlik jixatidan go'sht, sut va tuxum kabi eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan tenglasha oladigan 28-52 foiz oqsil, 18-27 foiz ekologik toza o'simlik moyi, ko'plab mineral tuzlarni, darmondorilarni saqlashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Soya doni va oqsilidan 400 dan ortiq mahsulotlar tayyorlash mumkin. Xozirgi kunga kelib soya ekilish maydonlari tobora ortib bormoqda.*

Soya ekini tobora ko'payib va extiyoj ortib borayotgan ekin turi bo'lib hisoblanadi. Chunki, uning doni tarkibida yuqori sifatli aminokislotalar bilan ta'minlanganlik jixatidan go'sht, sut va tuxum kabi eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan tenglasha oladigan 28-52 foiz oqsil, 18-27 foiz ekologik toza o'simlik moyi, ko'plab mineral tuzlarni, darmondorilarni saqlashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Soya doni va oqsilidan 400 dan ortiq mahsulotlar tayyorlash mumkin. Xozirgi kunga kelib soya ekilish maydonlari tobora ortib bormoqda.

Bugungi kunda, soya donining oqsilga boyligi, oqsili tarkibida inson uchun o'rin almashilmaydigan aminokislotalarning barchasini mavjudligi alohida ahamiyatga ega bo'lib, soya donining ovqatlilik ahamiyatini yanada oshiradi. Chorvachilikda soya mahsulotlari eng sifatli va to'yimli ozuqa hisoblanib, tarkibidagi proteniga ko'ra 100 kg soya doni 134,8 ozuqa birligini saqlaydi. Bu ko'rsatkich boshqa biror donli yoki dukkakli ekinda uchramaydi. Quruq poyasi ham beda pichaniga qaraganda to'yimliroqdir. Soya oqsili ipak qurti uchun ham noyob ozuqa hisoblaadi. Soya o'simligining tuproq unumdorligini oshirish borasidagi ahamiyati kattadir. Soyadan almashlab ekishda foydalanish katta foyda beradi. Soya ildizi orqali havodan sof azotni o'zlashtirib, tuproqni boyitadi. O'simlik o'sish davrida o'zi uchun ham, o'zidan keyingi o'simlik uchun ham ma'lum miqdorda azot qoldiradi. U tuproq tarkibini yaxshilab, biologik jarayonlarning faolligini oshiradi. O'simlik ekilgan dalalarda tuproqning mikroflorasi yaxshilanadi, tuproqda biologik va ekologik tizim vujudga keladi. Chuvalchanglar yashashi uchun ham qulay sharoit yaratadi. Soya doni asosida tayyorlanadigan oziq-ovqat mahsulotlari soya suti, soya uni, soya tvorogi-tofu, soya pishlog'i, soya qatig'i va yog'sizlantirilgan soya unidan-soya izolyatidan mahsus texnologiya asosida AQShda, Xitoyda, Rossiyada ishlab chiqarilayotgan soyalik go'sht, baliq soyalik malyuskalar, qisqichbaqalar,



qo'ziqorinlar, ayniqsa, an'anaviy shakllarda ishlab chiqarilayotgan go'sht mahsulotlari-qiyma (donadorlashtirilgan soya), soyalik go'sht kubiklari gulyash, yumaloqlagan qiyma, soyalik go'sht lahmlari (antrekotlar, urilgan go'sht) larning quritish asosida maxsus tayyorlangan xillar ishlab chiqarilib ularni saqlash, tashish juda qulay hisoblanadi.

Tarkibida xolesterin, hayvon yog'larini saqlamaganligi bois ularni iste'mol qiluvchilarni qonlarini trigliseridlardan tozalab, xolesterin miqdorini kamaytirish bilan kishilarda yurak-qon tomir kasalliklarini oldini olishda alohida ahamiyatga ega va inson salomatligi uchun juda muhim hisoblanadi. Soya oqsili suvda yaxshi erishi va inson organizmiga yuqori darajada singishi bilan ham aloxida kadrilanadi. Soya uni: yog'sizlantirilgan soya uni (izolyati)ni non va non mahsulotlari ishlab chiqarishda qo'llash, nonlarning sifatini yaxshilash orqali, nonning kunlik sarfini kamaytiradi, soyalik nonlar uzoq vaqt qotmaydigan bo'ladi, ko'rinishi chiroyli bo'rsildoqligi ortadi.

Bizningilmiy izlanishlari -miz Andijon viloyatidagi donli va dukkakli o'simliklar ilmiy tekshirish institutining tajriba xo'jalik yerlarida o'tloqi bo'z tuproqlar sharoitida takroriy ekilgan soyaning ertapishar navlarini sug'orish tartiblarini aniqlash ustida o'tkazildi.

Tuproqni sug'orishdan oldingi namligi, CHDNS ga nisbatan, 70-70-60% qilib belgilangan 1-variantimizda soyaning Gavhar navi rivojlanishi g'unchalashda bo'yi 28,0sm, shonalari 4,0 dona hosil shoxlari esa 1,5 dona, gullashda bo'yi 31,0sm hosil shoxlari 3,2 donani gullari esa 10,2 donanani, dukkaklashda bo'lsa bo'yi 54,5sm hosil shoxi 5,5 dona dukakklar soni 36,2 donani taskil etgan bo'lsa, pishish davriga kelganda bu ko'rsatkichlar bo'yi 65,5 dukkaklar soni 44,2 dona don soni 11.3 donani tashkil etgani kuzatildi.

Cheklangan dala nam sig'imi 75-75-65% qilib belgilangan 2-variantimizda o'simlikning amal davri mobaynida rivojlanishi g'unchalashda bo'yi 28,5sm shonalari 4,1 dona hosil shoxlari esa 1,7 dona, gullashda bo'yi 31,4sm hosil shoxlari 3,3 donani gullari esa 11,0 donanani, dukkaklashda bo'lsa bo'yi 56,2sm hosil shoxi 5,8 dona dukakklar soni 37,5 donani taskil etgan bo'lsa, pishish davriga kelganda bu ko'rsatkichlar bo'yi 66,7 dukkaklar soni 47,1 dona don soni 11.5 donani tashkil etgani kuzatildi.

Tuproqni sug'orishdan oldingi namligi, CHDNS ga nisbatan, 70-80-70% qilib belgilangan 3-variantimizda soya o'simligining rivojlanishi quyidagicha g'unchalashda bo'yi 26,5sm shonalari 4,3 dona hosil shoxlari esa 1,8 dona, gullashda bo'yi 32,0sm hosil shoxlari 3,5 donani gullari esa 11,5 donanani, dukkaklashda bo'lsa bo'yi 58,0sm hosil shoxi 6,0 dona dukakklar soni 37,2donani taskil etgan bo'lsa, pishish davriga kelganda bu ko'rsatkichlar bo'yi 65,4dukkaklar soni 49,2dona don soni 11.7 donani tashkil etganini kuzatdik. (1-jadval)

**Tuproqni sug'orishdan oldingi namligini soya o'simligining rivojlanishiga ta'siri, 1-jadval**

| Variant tartibi | Sug'orish oldi tuproq nam ligi CHDNS % hisobida | G'unchalashda |                 |                   | Gullashda |                   |              | Dukkaklashda |                  |                   | Pishishda |                   |                |
|-----------------|---|---------------|-----------------|-------------------|-----------|-------------------|--------------|--------------|------------------|-------------------|-----------|-------------------|----------------|
|                 |   | Bo'yi sm      | Shona lar, dona | Hosil shoxi, dona | Bo'yi sm  | Hosil shoxi, dona | Gullari dona | Bo'yi sm     | Hosil soxi, dona | Dukkak soni, dona | Bo'yi sm  | Dukkak soni, dona | Don soni, dona |
| <b>Gavhar</b>   |   |               |                 |                   |           |                   |              |              |                  |                   |           |                   |                |



|                |          |      |     |     |      |     |      |      |     |      |      |      |      |
|----------------|----------|------|-----|-----|------|-----|------|------|-----|------|------|------|------|
| 1              | 70-70-65 | 28,0 | 4,0 | 1,5 | 31,0 | 3,2 | 10,2 | 54,5 | 5,5 | 36,2 | 65,5 | 44,2 | 11,3 |
| 2              | 75-75-70 | 28,5 | 4,1 | 1,7 | 31,4 | 3,3 | 11,0 | 56,2 | 5,8 | 37,5 | 66,7 | 49,1 | 11,9 |
| 3              | 75-80-75 | 26,5 | 4,3 | 1,8 | 32,0 | 3,5 | 11,5 | 58,0 | 6,0 | 37,2 | 65,4 | 49,2 | 11,7 |
| <b>Slaviya</b> |          |      |     |     |      |     |      |      |     |      |      |      |      |
| 4              | 70-70-65 | 28,2 | 4,2 | 1,6 | 31,2 | 3,2 | 10,5 | 54,7 | 5,8 | 36,1 | 65,5 | 44,2 | 11,3 |
| 5              | 75-75-70 | 28,4 | 4,0 | 1,7 | 31,6 | 3,4 | 11,3 | 56,0 | 5,7 | 37,3 | 65,7 | 47,1 | 11,5 |
| 6              | 75-80-75 | 26,9 | 4,1 | 1,8 | 32,4 | 3,4 | 11,6 | 58,2 | 6,0 | 37,3 | 65,6 | 49,2 | 11,6 |

Xulosa.

Tajribalarimiz shuni ko'rsatdiki chdns (chegaraviy dal nam sig'imi) 70-80-70% qilib belgilangan 3- variantimizda yuqori hosil olishga erishildi.

Soya o'simligini yetishtirishda respublikamiz soyashunos olimlarining tavsiyalariga asosan suv bilan yaxshi taminlangan maydonlarda yetishtirish tavsiya etiladi.

### References:

1. Nematov.U.M. Isashov. A. Takroriy ekin soya navlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda sug'orish tizimlarini asoslash. Monografiya Toshkent 2021-yil.
2. Soya agrotexnikasi (fermerlar uchun tavsiyanoma) Toshkent-2017
3. Ahmet Nedim Nazlican, Soya yetishtiriciligi
4. Abdulxafizov Xalilillo. Takroriy ekilgan soya navlarining sug'orish muddatlari va me'yorlari//«Eurasian Journal of Academic Research»(ISSN: 2181-2020) 2022 №13
5. Исашов А., Махмудов Д., Қамбаров Ш. ХАЙДОВДАН КЕЙИНГИ ЧУҚУР ЮМШАТИШ АГРОТЕХНИКАСИ БИЛАН ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ УСУЛИНИ ҚЎЛЛАШНИНГ ТУПРОҚ ҲАЖМ МАССАСИГА ТАЪСИРИ //International scientific journal of Biruni. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 22-27.
6. Isashov A. Sobitov O //Ispol'zovanie novykh netraditsionnykh vodosberegayushchikh, a takzhe uluchshayushchikh meliorativnoe sostoyanie zemel', metodov tekhniki i tekhnologii polivov na proektiruemykh oroshaemykh zemlyakh.
7. Исашов А., Махмудов Д., Қамбаров Ш. ХАЙДОВДАН КЕЙИНГИ ЧУҚУР ЮМШАТИШ АГРОТЕХНИКАСИ БИЛАН ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ УСУЛИНИ ҚЎЛЛАШНИНГ ТУПРОҚ ҲАЖМ МАССАСИГА ТАЪСИРИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 6. – С. 1394-1400.
8. Исашов А. и др. ПРИМЕНЕНИЕ ВНУТРИПОЧВЕННОГО ОРОШЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ //Российский электронный научный журнал. – 2015. – №. 1. – С. 175-179.